

1-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Hidravlika deb nimaga aytiladi?
2. Fanining rivojlanish tarixini tushuntirib bering.
3. Hidromashina qanday qurilma?
4. Suyuqlik deb nimaga aytiladi?
5. Suyuqlik to'g'risidagi asosiy tushunchalarni aytib bering.
6. Suyuqliklarning zichligi va solishtirma og'irligi deganda nimani tushunasiz?
7. Suyuqliklarning issiqlikdan kengayishini ayting.
8. Suyuqliklarning xajmiy siqilish koeffitsientini tushuntirib bering.
9. Suyuqliklarning qovushqoqligi nima?
10. Ideal va real suyuqliklar orasidagi farq nimadan iborat?

2-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Hidrostatika nimani o'rganadi?
2. Suyuqlikka qanday kuchlar ta'sir etadi?
3. Hidrostatik bosim deganda nimani tushunasiz?
4. Hidrostatik bosimni 1-xossasini ayting va isbotlang.
5. Hidrostatik bosimni 2-xossasini ayting va yozing.
6. Bosim qanday o'lchov birliklarida o'lchanadi?
7. Suyuqliklar muvozanatiga oid Eyler differensial tenglamasini yozing va sharhlang.
8. Hidrostatikaning asosiy tenglamasini yozing va ayting.
9. Hidrostatikaning asosiy tenglamasini boshqa yo'l bilan keltirib chiqarish mumkinmi?
10. Paskal qonunini ayting va Paskal qonuni asosida qanday mashinalar ishlaydi?

3-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Tekis devorlarga suyuqlikning bosim kuchi qanday ta'sir etadi?
2. Tekis devorlarga suyuqlikning bosim kuchini topish formulasini yozing.
3. Qiyshiq devorlarga suyuqlikning bosim kuchi qanday ta'sir etadi?
4. Qiyshiq devorlarga suyuqlikning bosim kuchini topish formulasini yozing.
5. Silindrik sirtlarga ta'sir etuvchi suyuqlikning bosim kuchini vertikal tashkil etuvchisi qanday topiladi?
6. Silindrik sirtlarga ta'sir etuvchi suyuqlikning bosim kuchini gorizontal tashkil etuvchisi qanday topiladi?
7. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan idishdagi suyuqlikning ixtiyoriy nuqtasidagi bosim qanday topiladi?
8. Qanday xolatda 7-savoldagi tenglama gidrostatikaning asosiy tenglamasiga aylanadi?
9. Suyuqlikli idishning tekis aylanma harakati tenglamasini yozing.
10. Suyuqlikli idishning tekis aylanma harakatida suyuqlik zarrachalariga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

4-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Hidrodinamika nimani o`rganadi?
2. Suyuqlik harakati necha xil bo`ladi?
3. Oqim chizigi, oqim nayi, oqimcha deb nimaga aytiladi?
4. Barqaror harakatda elementar oqimchanning nechta xossasi bor?
5. Suyuqlik sarfi deb nimaga aytiladi?
6. Hajmiy, og`irlik, massa suyuqlik sarflari qanday formulalar bilan aniqlanadi?
7. Oqimning uzluksizlik tenglamasini yozing;
8. Ideal suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasi qanday teorema asosida keltirilib chiqariladi?
9. Ideal suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasini yozing;
10. Ideal suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasining hadlarini sharhlang.

5-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Harakatdagi ideal suyuqlik uchun Eylerning differentsial tenglamasini yozing va tushuntiring.
2. Bernulli tenglamasi har bir hadining geometrik mazmunini aytib bering.
3. Pyezometrik balandlik deb nimaga aytiladi?
4. Bernulli tenglamasi har bir hadining energetik mazmunini aytib bering.
5. Uchi egilgan Pito naychalarida suyuqlik pyezometr dagiga nisbatan nima uchun balandroq ko`tariladi ?
6. Uchi egilgan Pito naychalaridagi va pyezometr dagi suyuqliklar balandliklari farqi nimaga teng?
7. Venturi naychasi deb nimaga aytiladi?
8. Haqiqiy suyuqlik oqimida gidravlik yo`qotish nima sababdan paydo bo`ladi?
9. Koriolis koeffisientini tushuntiring?
10. Haqiqiy suyuqlik oqimi uchun Bernulli tenglamasini yozing.

6-MAVZU. NAZORAT SAVOLLARI

1. Suyuqlik harakati turlari necha xil?
2. Reynolds kritik sonini yozing ?
3. O`xshashlik nazariyasi haqida tushuncha bering.
4. O`xshashlik doimiysi va aniqlovchisi deb nimaga aytiladi?
5. O`xshashlik kriteriyalarini yozing va izoh bering.
6. Struxal yoki gomoxronlik kriteriysi qanday aniqlanadi?
7. Suyuqlikning laminar harakati deb nimaga aytiladi?
8. Laminar harakatda o`rtacha va maksimal tezliklar qanday topiladi?
9. Laminar harakatda suyuqlik sarfi qanday topiladi?
10. Qanday harakatga turbulent harakat deyiladi?
11. Mahalliy oniy tezlik (aktual tezlik) deb nimaga aytiladi?
12. Tezlik tebranishi haqida tushuncha bering.